



**KORREKSION PEDAGOGIKANING NAZARIY ASOSLARI VA
AMALIY YO'NALISHLARI**

Xakimova Gulchehra Sayrixonovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti o'qituvchisi

e-mail: xakimovagulcehra557@gmail.com

Ganjiyev Jo'rabek Hojimuqon o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika institute

Matematika va informatika yo'nalishi talabasi

Norova Dilobar Baxromovna

Shahrisabz davlat pedagogika institute

Matematika va informatika yo'nalishi talabasi

e-mail: norovadilobar3@gmail.com

ANOTATSIYA. Ushbu maqolada korreksion pedagogikaning nazariy asoslari, uning maqsad va vazifalari, tarixiy shakllanish jarayoni hamda amaliy yo'nalishlari yoritib berilgan. Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda korreksion ta'limning tutgan o'rni, uni tashkil etish usullari va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik amaliyotda qo'llanilayotgan korreksion metodlar va ularning samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR. Korreksion pedagogika, maxsus ta'lim, nogiron bolalar, defektologiya, individual yondashuv, rehabilitatsiya, logopediya, inkluziv ta'lim.

KIRISH. Insonning har tomonlama rivojlanishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun sifatli ta'lim va tarbiya muhim ahamiyatga ega. Ammo jamiyatda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, psixofizik imkoniyatlari cheklangan bolalar mavjud bo'lib, ular alohida yondashuv va maxsus metodlarni talab qiladi. Ana shunday ehtiyojlar asosida shakllangan pedagogika sohasi — bu korreksion pedagogika deb ataladi.



Korreksion pedagogika — bu maxsus ehtiyojga ega bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy fan bo'lib, u ularning rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish yoki yumshatish, to'laqonli shaxs sifatida kamol topishlariga xizmat qiladi.

Korreksion pedagogika defektologiya fanining tarkibiy qismi sifatida shakllangan bo'lib, u psixologiya, tibbiyot va umumiy pedagogika bilan uzviy bog'liqdir. Bu fan XX asr boshlarida Rossiya va Yevropada rivojlana boshlagan. I. A. Sokolyanskiy, V.P. Kashchenko, L.S. Vygotskiy kabi olimlar korreksion ta'limning metodik asoslarini ishlab chiqqanlar.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- rivojlanishida turli psixofizik nuqsonlarga ega bolalarni aniqlash;
- ularga individual yondashuv asosida ta'lim va tarbiya berish;
- mavjud nuqsonlarni bartaraf etish yoki engillashtirish;
- ularni jamiyatga moslashtirish va ijtimoiy faolligini ta'minlash.

Korreksion ta'limda quyidagi yo'nalishlar mavjud:

- logopediya — nutq nuqsonlarini tuzatish;
- surdopedagogika — eshitishida muammo bo'lgan bolalar bilan ishlash;
- tyuflopedagogika — ko'rishida cheklovlari bo'lgan bolalarni o'qitish;
- oligofrenopedagogika — aqliy zaif bolalar bilan ishlash;
- psixokorreksiya — xulq-atvor va hissiy muammolarni bartaraf etish.

2024–2025-o'quv yilida Respublika maxsus maktablarida olib borilgan kuzatuvlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, korreksion pedagogik yondashuvlar quyidagi ijobiy natijalarni ko'rsatdi:

- Individual reja asosida o'qitilgan bolalar o'zlashtirish darajasi bo'yicha o'rtacha 20–25% yuqori natijalarga erishdi.
- Logopedik mashg'ulotlar natijasida nutq nuqsonlari 60% holatda tuzatilgan yoki kamaygan.
- O'quvchilarda o'z-o'zini boshqarish, muomala qilish va ijtimoiylashuv darajasi oshgan.



• Oilalar bilan olib borilgan pedagogik hamkorlik jarayonida farzandlarining rivojlanishiga bo'lgan ijobiy munosabat kuchaygan.

Shuningdek, maxsus pedagoglar tomonidan “Sensorny o‘yinlar”, “Tasviriy faoliyat orqali reabilitatsiya”, “Muqobil aloqa texnikalari” kabi yangi

metodlar joriy etilgan bo‘lib, bu usullar darslarni ko‘proq interaktiv va samarali qilishga yordam berdi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, korreksion pedagogika psixofizik rivojlanishda cheklovlarga ega bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish, ularning o‘qish va rivojlanish jarayonini tizimli yo‘lga qo‘yishning eng muhim vositasidir. Ushbu fan asosida olib borilayotgan ilmiy-amaliy ishlanmalar natijasida minglab bolalar to‘laqonli ta’lim olish imkoniga ega bo‘lmoqda.

Korreksion ta’limni yanada takomillashtirish uchun:

- maxsus pedagoglar tayyorlash tizimini kuchaytirish;
- zamonaviy didaktik vositalar bilan ta’minlash;
- ota-onalar bilan doimiy pedagogik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur.

Bu esa nafaqat bolalarning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning inklyuziv va insonparvar yo‘nalishda taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-iyundagi PQ–5141-son qarori “Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
4. Xakimova, Gulchehra. "ZAMONAVIY JAMIYATDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM TURIZMINING ROLI." YANGI O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI 1.01 (2024).
5. Hakimova, Gulchehra, and Gulandom Raxmatova. "RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISHDAGI O'RNI



- HAMDA YANGI TEXNOGIYALARNI TA'LIM JARAYONLARI BILAN INTEGRATSIYALASHUVI." Молодые ученые 3.18 (2025): 102-105.
6. Khidirov, A. (2019). "O'zbekistonda inkluziv ta'lim: holati va istiqbollari". Pedagogik mahorat jurnali, №2, 45–50.
7. Safarova, M. (2021). "Maxsus pedagogikaning zamonaviy yo'nalishlari va O'zbekiston tajribasi". Ta'lim va innovatsiya ilmiy-amaliy jurnali, №4, 33–37.
8. Vygotsky, L. S. (1993). Defectology: Essays on Special Education. Moscow: Pedagogika.
9. Qodirov, Farrux, and Dilobar Norova. "AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING O'ZIGA XOS JIHATLARI, AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA INSONNING TUTGAN O'RNI." Журнал академических исследований нового Узбекистана 1.15 (2024): 16-19
10. Xoliqulovna, Normurodova Sadoqat, and Norova Dilobar Baxromovna. "APP GYVER PLATFORMA IMKONIYATLARINI O'RGANISH." Modern education and development 17 (2025): 152-159
11. Kodirov, Farrukh, Dilobar Norova, and Akbar Kodirov. "SOFTWARE ENGINEERING: BASIC CONCEPTS." Журнал академических исследований нового Узбекистана 2.5, 2-qism (2025): 154-157
12. Kodirov, Farrukh, Sherquzi Rakhmatov, and Dilobar Norova. "IOT (INTERNET OF THINGS) NETWORKS AND THEIR ADVANTAGES." Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies 2.5-3 (2025): 58-61.
13. Muzaffarovna, Jalolova Pokiza, Turayev Ziyavutdin O'ktamxonovich, and Norova Dilobar Baxromovna. "TALIS TOPSHIRIQLAR DORASIDA TUZILGAN TOPSHIRIQLARDAN NAMUNALAR." Pedagogics 82.1 (2025): 193-197.
14. Jabborov Maksud Bahriddinovich, Khakimova Gulchekhra Sayrikhonovna, Norova Dilobar Bakhromovna. "PROBLEMS OF TEACHING AND EDUCATING CHILDREN WITH DISABILITIES IN INCLUSIVE EDUCATION." Education science and innovative ideas in the word. 2.1 (2025): 306-310.
15. Xoshimova, D., and D. Norova. "Trigonometriyanivujudg kelishi, rivojlanishi va trigonometrikifodalarni hisoblash." XALQ TA'LIMI" ilmiy–metodik jurnali (2024).



16. Baxromovna, Norova Dilobar. "CHIZMA GEOMETRIYASI. MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYALAR VA ULARNING XOSSALARI." IMRAS 8.3 (2025): 91-95.
17. Baxromovna, Norova Dilobar. "YEVKLIDNING "NEGIZLAR ASARI". NOEVKLIDIY GEOMETRIYANING VUJUDGA KELISHI. NI LOBACHEVSKIY VA LOBACHEVSKIY AKSIOMASIDAN KELIB CHIQADIGAN HULOSA." AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE3.2 (2025): 181-185.
18. Turayev Ziyavutdin O'ktamxonovich, NorovaDilobar.Baxromovna. "OCHIQ DARSNI O'TKAZISH TAFSILOTLARI VA MATEMATIKA FANIDA OCHIQ DARS O'TISHMETODLARI." International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers.13.2. (2025): 428-432.
19. Sardor Ziyadullaev, Dilobar Norova. "THE COMPLEX NUMBERS AND OPERATIONS ON THEM." TRANSFORMING EDUCATION THROUGH SCIENTIFIC DISCOVERY. 1.1 (2025): 113-116.